



Rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning hayoti va ijodiga chizgilar

O'zbekiston Davlat konservatoriysi
“Akademik xonandalik” opera tayyorlov
2-kurs Magistri Yuldashev Mirfayoz Malikjonovich.

Jahon musiqa tarhida P.I.Chaykovskiy nomi yorqin hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning qalamiga mansub musiqiy asarlarining o'zgacha tarovati, milliy o'ziga hosligi, lirik kuychanligi, betakror go'zal jhanglari hech kimni befarg qoldirmaydi.

Kompozitor 1840-yil 7-may (eski taqvim bo'yicha 25-aprel)da Rossiya imperiyasining Vyatskiy guberniyasi Votkinsk shaxrida (xozirgi Rossiya Federatsiyasining Udmurt respublikasi, Votkinsk tumani) dunyoga kelgan. Chaykovskiy kompozitor, dirijor, pedagog, musiqiy-jamoat arbobi, musiqiy jurnalist. Musiqa tarixidagi taniqli buyuk kompozitorlardan biri xisoblanadi. Saksondan ortiq asarlar muallifi, shu jumladan o'nta opera va uchta balet ijodkori. Chaykovskiy konsertlari va fortepiano uchun yozilgan boshqa asarlari: yettita simfoniya (oltitasi raqamlangan va «Manfred» simfoniyasi), to'rtta syuita, dasturli simfonik musiqasi, «Oqqush ko'li», «Uyqudag'i malika», «Qarsildoq» baletlari jahon musiqa madaniyati rivojiga qo'shgan qimmatbaho ulushi deb xisoblanadi.

Otasi – Il'ya Petrovich Chaykovskiy (1795-1880) atoqli rus injeneri, Kamsko-Botkinsk zavodlari direktori. Onasi – Aleksandra Andreyevna Chaykovskaya.

Oilada musiqani sevib ijro etishgan, onasi kuylash bilan birga, fortepianoda katta-kichik kuylarni ijro etardi, uylarida tez-tez musiqiy kechalar uyishtirishardi. Chaykovskiyining musiqaga bo'lgan qobiliyati erta uyg'ongan bo'lib: besh yoshidan fortepiano chalishni boshlagan, sakkiz yoshdan boshlab nota o'qib, musiqiy tasavvurlarini yozishga xarakat qilgan.



Otasi yoshlida nay, onasi esa arfa va fortepiano chalgan, shuningdek romanslarni xirgoyi qilgan. Har bir madaniyatli uylarda bo‘lganidek Chaykovskiyalar uyida xam royal’ bo‘lgan, shuningdek poytaxtdan keltirilgan mexanik organ-orkestrina bor edi. Aynan orkestrinada jaranglagan Motsartning «Don-Juan» operasidan Serlina ariyasi jazzi Pyotr tasavvurida o‘chmas iz qoldiradi. Bu organning valiklarida Donitsetti, Bellini va Rossinining operalaridan parchalar bor edi.

P.Chaykovskiy bolalik davrida ancha no‘noq she’rlar yozgan, asosan fransuz tilida qalam tebratib Lyudovik XVII biografiyasi bilan qiziqqan. 1868-yil voyaga yetgach Parijda Lyudovikni Tampldag'i tasviri tushurilgan gravyurasini sotib oladi va ramkaga joylashtirib qo‘yadi. Bu gravyura va Anton Rubinshteynning portreti uzoq vaqtgacha uyidagi yagona bezak bo‘lib kelgan.

1848-yilda Il’ya Petrovich xizmatdan ozod etiladi va general-mayor unvoni, hamda nafaqa bilan ta’milnadi. O‘sha yilning sentyabrida vaqtincha Moskvaga ko‘chib o‘tishadi. Fanni Dyurbax bolalarga kerak bo‘lmay qolganini sezib hechkim bilan xayirlashmay pomeshchik Neregovlarnikiga o‘tib ketadi. O‘zining narsalari bilan birga «P’yer muzeyini» olib ketadi – bu qoralama qog’ozlarni keyinchalik uchrashganda beraman deb niyat qilgan edi. Chaykovskiy oilasi Moskvadan Peterburgga ko‘chib kelishadi, u yerda Pyotr va Nikolayni shmeling pansioniga topshirishadi. Xuddi shu yerda Filipov boshchiligidagi musiqa mashg’ulotlarini o‘tadi va Pyotrda opera, balet, simfoniya katta ta’surot uyg’otadi.

1849 yil Chaykovskiyalar oilasi Alpayevsk shaxriga, 1850-yilda Sankt-Peterburg shaxriga ko‘chib kelishadi. Sankt-Peterburgga ko‘chib kelishgach ota-onasi uni Imperatorlik Xuquqshunoslik bilim yurtiga joylashtirishadi. Chaykovskiy 1852-yildan bilim yurtida fakul’tativ tarzida o‘rgatiladigan musiqa bilan jiddiy shug’illana boshladi. O‘n olti yoshidan musiqaga yanada ko‘proq e’tibor qarata boshladi, mashxur pedagog Luidji Pichcholi; keyinchalik Rudol’f Kyundingerlar sinfida tahsil oldi. 1859-yil bilim yurtini tugatgan Chaykovskiy maslaxatchi mansabida Adliya vazirligida ish boshlaydi. Xizmatdan tashqari, bo‘sh vaqtlarida



unda kuchli ta'surot uyg'otgan Motsart va Glinka operalari qo'yiladigan opera teatriga borar edi.

1861-yilda Rus musiqiy jamoasining Musiqa sinfi, keyinchalik 1862-yil Peterburg konservatoriyasiga qayta tashkillangan kompozitorlik sinfiga o'qishga kirib, konservatoriyaning ilk studentlaridan bo'lib tamomlaydi. Chaykovskiyning konservatoriyadagi o'qituvchilari Nikolay Ivanovich Zaremba (musiqa nazariyasi) va Anton Grigor'yevich Rubinshteyn (cholg'ulashtirish). Aynan Rubinshteynnинг ta'siri ostida xizmatni tashlab butun borlig'i bilan musiqaga sho'ng'ib ketgan. 1865-yilda Shillerning

«K radosti» qasidasiga kantata yozib, katta kumush medal bilan tamomlaydi. Konservatoriyada yozgan boshqa ishlari Ostrovskiyning «Bo'ron» asariga uvertyura va keyinchalik «Qo'mondon» operasiga kirgan oqsoch qizlarning raqlari. Konservatoriyanı tugatgach Nikolay Rubinshteynnинг taklifiga ko'ra, Moskva shaxrida yangi tashkilangan konservatoriyada erkin ijod (improvizatsiya), garmoniya, nazariya va cholg'ulashtirish sinflari kabi fanlardan dars bera boshlaydi. 1868-yilda matbuotda musiqiy tanqidchi sifatida o'zini namoyon qiladi va Peterburg kompozitorlar guruhi – «Kuchli to'da» a'zolari bilan tanishadi.

Kompozitor o'zining ijodiy faoliyati davomida ko'plab vokal janrlarida asarlar yaratgan. Ayni damda ular honandalar repertuarida munosib o'rinnegallab, Jahon musiqa san'atining durdona asarlari sifatida qayd etiladi.

Adabiyotlar

1. "Rus klassik musiqasi va uning tarixi" T.1993 y.
2. "Chaykovskiy musiqa ijodi" M. 1978 y.